

## O‘zbek tili tarixiy matnlari tabdilida “Lahjatu-l-lug‘ot”ning o‘rni

**F.f.f.d. Rajabova Umida**  
**UrDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi**

Har qanday tarixiy matn, ya’ni mumtoz yodnomalarni o‘qish, o‘rganish, tabdil va talqin qilishda tarixiy lug‘atlarning o‘rni katta. Jumladan, “Lahjatu-l-lug‘ot”ning o‘zbek tarixiy matnlari tadqiqida alohida o‘rni bor. Chunki “Lahjatu-l-lug‘ot” ma’lum bir so‘zni ma’nodoshlari, arab va fors tillaridagi muqobillarini bir joyga yig‘ishi, har bir so‘zning, garchi mutolaani ancha og‘irlashtirishi va o‘quvchini zeriktirishga qaramay, aniq o‘qilishi bilan alohida ahamiyatga ega. Mamlakatimizda mumtoz merosga munosabat har qachongidan ham yaxshilashgan va ularning nashri hamda targ‘ibotiga katta e’tibor qaratilgan bugungi kunda ushbu manbalarning amaliy ahamiyati yana ham kengaygan.

Mutaxassislar yaxshi biladiki, matnshunos so‘zlar soni bilan emas, belgilar soni bilan ish ko‘rishga majbur. Soddaroq aytganda, nashr davomida fosila (probel)lar ham o‘z o‘rniga ega. Masalan, *ma’dalat dastgoh* deyilganda so‘zlar yozilishi to‘g‘ri, aslida esa u *ma’dalatdastgoh* shaklida berilishi kerak. Ana shu jihatdan birgina “Firdavsу-l-iqbol”da bir millionga yaqin belgi borligini ham ma’lumot uchun aytib o‘tmoqchimiz. Misol tariqasida ilgargi nashrlarda jang ma’nosidagi *muhoraba* so‘zi *muhoriba* (jangchi ayol), *mujodala* (tortishuv; jang) *mujodila* (tortishuvchi ayol) deb o‘qilgani bir belgining qanchalik ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi. Bunga o‘xshagan *muqotila*, *muzoriba* kabi o‘nlagan so‘zlarni keltirish mumkin.

Shuningdek, ayrim nashrlarda kishi nomlari xato o‘qilgan. Masalan, mashhur saxovatpesha, arab bahodir va fasih (so‘z ustasi)laridan bo‘lgan, 151-hijriy qamariyda vafot etgan Abulfazl Ma’n ibn Zoida bin Abdulloh ash-Shayboniy – Ma’n Zoida nomi bir nashrda noto‘g‘ri anglanib, “kimshodi” savdosi deb talqin qilingan bo‘lsa (vaholanki, ko‘rsatkichda Ma’n Zoida deb to‘g‘ri berilgan), boshqa nashrda kishi nomi ekanligi anglanmagan. Matn mazmuni, masalan, bunday o‘qish lozimligini ko‘rsatadi: “Hotam Toyi saxovati va Ma’n Zoida samohatining afsonasig‘a nasxu butlon xatin urdi”.

Ayrim hollarda matnlarni o‘qish asnosida sinonim so‘zlar orasidagi ma’no farqlarini anglab yetish unchalik oson bo‘lmaydi. Mana shunday holatlarda “Lahjatu-l-lug‘ot” kabi lug‘atlarda berilgan ma’lumotlar katta yordam ko‘rsatadi. Bunga eski o‘zbek tilida *osmon* tushunchasini ifodalovchi so‘zlarning ma’no qirralarini Alisher Navoiy lirikasi misolida ko‘rshimiz mumkin.

Eski o‘zbek tilida *osmon* ma’noli so‘zlar ko‘lami ancha keng. Qadimgi turkiy tilda “osmon” ma’nosida *tǟhro* ‘ so‘zi qo‘llanilgan<sup>1</sup>. Bu so‘zning “iloh” va “osmon” ma’nolaridan foydalanilgan holda toshbitiklarda tajnis san’ati namunasi yaratilgan<sup>2</sup>.

Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimatu-l-adab” asari “Ismlar” qismining ikkinchi bobi “Al-bobu fi-s-samaai va-l-alavviyot” – “Osmon va undagi narsalar haqida” deb nomlangan<sup>3</sup>. Shuningdek, *ko‘k* so‘zi ham *osmon* ma’nosidagi o‘z qatlamga mansub so‘zlar sirasiga kiradi<sup>4</sup>.

Sham’ emas yerdin, kavokib charxdin bayram tuni,  
 Kim erur yer-*ko‘k* tuman ming ko‘z bilan hayron sanga<sup>5</sup>.  
 G‘am tuni ohim sharoridin tutashti *ko‘kka* o‘t,  
 Kim aning otin qo‘yubtur gunbazi davvor subh. (BB, 29<sup>a</sup>)

Alisher Navoiy asarlari tilida *ko‘k* so‘zining ANATILda qayd etilganlaridan tashqari “falak burji” ma’nosni ham bor:

Qaysi bir *ko‘kning* yuzungdek mehri olamtobi bor?  
 Qaysi gulshanning jamolingdek guli serobi bor? (BB, 60<sup>a</sup>)

Ushbu g‘azalning Komil Xorazmiy qalamiga mansub mashhur “Qaysi falak burjining mehri puranvorisan” deb boshlanuvchi muxammasi yaratilishiga ijodiy ta’siri bo‘lgani ehtimolga yaqin.

Bundan tashqari, eski o‘zbek tilida arab va fors tillariga mansub *osmon* ma’nosida bir necha so‘z mavjud bo‘lib, ularning aksariyati Alisher Navoiy asarlarida ishlatilgan. Bular: *osmon*, *charx*, *samo*, *falak*, *asir*, *ummu-n-nujum*, *gunbad* // *gunbaz*, *sipehr*, *xazro*, *mino*, *minu*, *ajuz*, *jarbo*, *gardun*, *raqi*', *zohiya*, *garzmon*, *jurbatu-n-nujum*.

*Osmon* so‘zi. Abu Rayhon Beruniy “At-tafhim”da forsiylar uni *os* – tegirmonga o‘xshashligi uchun shunday ataydilar, deb yozadi. Shuni nazarda tutgan holda Fariduddin Attor “Osiyo osast nosoyad dame, Osmon z-onast nomi u hame”, ya’ni “tegirmonga o‘xshaydi-yu, bir dam to‘xtamaydi, shundan unga osmon nom bo‘lgan”, deb yozadi. Aliakbar Dehxudo fikricha, *osmon* so‘zini “os” – “tegirmon”

<sup>1</sup> Татаринцев Б.И. О происхождении тюркского названия неба (*tǟnri* и его соответствия). – СТ. – №4. – 1984.

<sup>2</sup> Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б.91. Шунингдек, Н.Рахмоновнинг битиктошлар поэтикасига оид ишларида ҳам қайд этилган.

<sup>3</sup> پیش رو ادب یا مقدمه الادب استاد ذواللسانین جار الله فخر خوارزم ابو القاسم محمود بن عمر الزمخشري الخوارزمی. کهن سال ترین فقه اللغة و فرنگ تازی پیارسی دری. القسم الاول و هو قسم الاسماء بهره نخستین و این بهره نامه است. گردآورنده، آراسته، پیر اسنه سید محمد کاظم امام. چاپخانه دانشگاه تهران. ۱۳۴۲ ص ۲۱-۲

<sup>4</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1983. – Б.149.

<sup>5</sup> (“Бадойиъ ул-бидоя”) Хаттот Султон Али Машҳадий. – Техрон, Китобхонайи мажлиси шўройи миллий. №86970. 19<sup>a</sup>. Ушбу девондан олинган бошқа мисоллар ҳам шу манба асосида бўлиб, қавс ичida ББ қисқартасидан кейин сахифаси қайд этилади.

va “-mon” (“monand” – “o‘xshash” so‘zining qisqargani) qismlaridan tarkib topgan, degan mulohaza asosli emas<sup>6</sup>.

Haqiqatan, qadimda odamlar osmonni katta tosh sifatida tasavvur qilganlar yoki uni toshga qiyoslaganlar. Natijada *osmon* so‘zi hosil bo‘lgan. Bu so‘z “Avesto”da ham, pahlaviy tilida ham *asman* shaklida ishlatilgan.

Bil shafaq o‘tiyu anjum uchqunidin g‘am tuni,  
Kim qilibtur mayl ohim *osmonni* o‘rtamak. (291<sup>a</sup>)

*Charx* – pahlaviyda *cark*, avestoviyyda *caxra*, qadimgi hind tilida *cakrā* shakllariga ega bo‘lgan<sup>7</sup>.

Ki to bo‘lg‘ay bu *qasri charxkirdor*,  
Bu ism ayvonida bo‘lg‘ay namudor.  
Alo, to *charx qasri* soyir o‘lg‘ay,  
Nujum ayvoni uzra doyir o‘lg‘ay,  
Bu shoh ayvoni umrining binosi  
Matin o‘lsun, nechukkim *charx* asosi. (BB, 8<sup>a</sup>)

*Asir* اشیر so‘zi mumtoz adiblarimiz tomonidan mazkur ma’noda juda kam qo‘llanilgan. Alisher Navoiy asarlarida bu so‘z “efir”; “osmon”, “falak” ma’nolarida ishlatilgan<sup>8</sup>. Ushbu so‘z arab tiliga yunon tilidan o‘zlashgan bo‘lib, Aliakbar Dehxudo fikricha, yunoncha *Aether*, lotincha *Aitherning* avestoviy *âtar* (olov) va pahlaviychadagi *âtur* bilan shakl va ma’noda bog‘liqligi bor<sup>9</sup>. Rus tiliga *efir* shaklida o‘zlashgan bu so‘z “havoning yuqori qatlami” ma’nosи anglatadi va yunoncha αἴθήρ so‘zidan olingani qayd etiladi<sup>10</sup>. *Efir* – yunon afsonalarida fazoni to‘ldirib turadigan sof va shaffof havo qatlami, shuningdek, ko‘chma ma’noda “osmon”, “ko‘k”, “samo”ni anglatadi<sup>11</sup>. Sharqda *Asiriddin* kabi unvon va kishi ismlaridagi *asir* اشیر arabcha fe’lidan shakllangan bo‘lib, lug‘atlarda “tanlangan”; “saxovatli”; “xolis do‘st”; “shamshir javhari” kabi ma’nolari qayd etilgan. Arab tilida uning “aziz”, “sharif”, “hurmatli”; “xolis va fazilatli do‘st” ma’nolari faol<sup>12</sup>.

Qani Bahromshohi charxsarir

Ki, sarir ayladi sipehri *asir*?<sup>13</sup>

Mumtoz adiblarimiz tilida *sipehri asir*, *charxi asir* birikmalari uchraydi. Masalan, Ogahiyning “Riyoz ud-davla” asaridan

<sup>6</sup> علي اکبر دهخدا. لغت نامه دهخدا. جلد اول. موسسسة انتشارات وچا پ دانشگاه تهران. ۱۳۷۷. ص ۱۲۷

<sup>7</sup> شمس الدین محمد بن خلف تبریزی . برہان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. جلد ۲ ص ۶۲۹

<sup>8</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1983. – Б.125.

<sup>9</sup> علي اکبر دهخدا. لغت نامه دهخدا. جلد اول. موسسسة انتشارات وچا پ دانشگاه تهران. ۱۳۷۷. ص ۱۰۲۱

<sup>10</sup> Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. В четырех томах. Перевод с немецкого и дополнения О.Н.Трубачева. Том 4. – М.: Прогресс, 1987. – С.524.

<sup>11</sup> Русско-узбекский словарь. Том 2. – Ташкент: Главная редакция УзСЭ, 1984. – С.771.

<sup>12</sup> فرنگ لاروسی عربی – فارسی. جلد اول. ترجمهء المجمع العربی الحديث خلیل جر. ترجمهء سید حمید طبیبان. تهران امیر کبیر. / ۳۸۰ ص ۴۲

<sup>13</sup> Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 12-том. – Тошкент: Фан, 1992. – Б.385.

Bori tortibon sher yanglig‘ nafir,  
Unidin qilib vahm *charxi asir*<sup>14</sup>.

*Sipehr* سپهر – qadimgi forsiy so‘zlardan biri bo‘lib, yunon muarrixlari tilga olgan Iskandar bilan jang qilgan “osmon o‘g‘li, osmon baxshishi” ma’nosidagi *Spithradátas*, *Spithridátés* (Spitamen) nomi tarkibida ham bor. Pahlaviy tilida *spihr*, *Huspir* sanskrit tilidagi “oqqa moyil (ko‘k), oq” ma’nosidagi *cvitrá* so‘zi bilan aloqadordir. Rus tilidagi *sfera*, ingliz tilidagi *sphere* aynan shu so‘zning g‘arb tillaridagi ko‘rinishidir.

*Samo* سما – osmon, falak. Mumtoz adiblarimiz tilida “butun borliq, yer-u ko‘k” ma’nolarida forsiy so‘zlar bilan *moh to mohiy* (aynan: oydan baliqqacha) hamda arabcha so‘zlar bilan *samodin to samak* (aynan: osmondan baliqqacha) ifodalari ishlatilgan. Bu quyidagi misolda ham aks etgan:

Vah, necha ishq o‘ti jismimda so‘ngakni o‘rtagay,  
Ko‘nglagim jaybig‘a o‘t solg‘ay, etakni o‘rtagay,  
Telbalik ohim *samodin to samakni* o‘rtagay,  
Ul quyosh hajrida qo‘rqarmen falakni o‘rtagay,  
Har sharorekim, bo‘lur bu o‘tlug‘ afg‘ondin judo. (BB, 197<sup>b</sup>)

*Falak* فلک (ko‘pligi *aflok* ) so‘zi. Arab tilida bu so‘zning “osmon” ma’nosini kasb etishiga “dumaloqlik” semasi asos bo‘lgan. Unga o‘zakdan *falk*<sup>15</sup> so‘zining “qayiq” ma’nosini berishi ham bejiz emas.

Mehr toju charx taxting bo‘lsa g‘ofil bo‘lmakim,  
Mehr bemehru *falak* nomehribone besh emas. (BB, 76<sup>a</sup>)  
Menda bir o‘tdurki, gar dam ursam *aflok* o‘rtanur,  
Asrasam ko‘nglumda, jonusi jismi g‘amnok o‘rtanur. (BB, 66<sup>b</sup>)

*Toram* طارم – osmon, falak. Arab tilida “chodir” ma’nosini anglatuvchi bu so‘z, lug‘atshunoslar fikricha, fors tilidan o‘zlashgan. Mumtoz adiblarimiz, jumladan, Alisher Navoiy asarlari tilida uning metafora orqali shakllangan “osmon” ma’nosi faol. Masalan, Hazratning na’t g‘azallarining biridan bayt:

Mash’ale bo‘lmish malak ilgida ravzang boshig‘a  
Oy charog‘i kechalar bu nilgun *toram* aro. (BB, 13<sup>a</sup>)

Alisher Navoiy asarlarida *nilgun toram* birikmasi *qiyrung g‘abro – qora tuproq* ifodasiga qarshi ma’noda ishlatiladi:

Yuzungdin anjum, anjumdin quyosh nur iktisob aylab,

<sup>14</sup> ۱۴ ریاض الدوله ЎзР ФА Шарқшунослик институти. 5364 / II. 258<sup>a</sup>.

<sup>15</sup> Ах-наъим. Арабча-ўзбекча луғат. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – 5.634.

Aningdekkim, quyoshdin oyu oydin qiyrgun g‘abro. (BB, 13<sup>a</sup>)

*Gardun* – گردون – forscha so‘z bo‘lib, mumtoz adiblarimiz tilida “garduni dun” (pastkash falak) birikmasi ko‘p ishlatilgan:

Ey, qading to‘biyu jannat xaddi gulgun ustina,

Ko‘rmadi davron seningdek oy *gardun* ustina. (BB, 291<sup>a</sup>)

*Gunbad* // گنبد so‘zining fors tiliga oromiy yoki suryoniy tilidan o‘tganligi taxmin qilinadi<sup>16</sup>. Alisher Navoiy asarlarini tilida “osmon” ma’noli so‘zlar “ko‘k” sifatining arab tilidagi muannas shakli *xazro* va muzakkari shakli *axzar* bilan teng ishlatilgan. Buning sababi arabiyo‘zlashmalar bo‘lmish so‘zlarning eski o‘zbek tili uchun jinsi ahamiyatli bo‘lmagani, ikkinchidan, “osmon” ma’nosini beruvchi “samo”ning ko‘pincha muannasda ishlatilsa ham, umumiy jinsga mansubligidir<sup>17</sup>.

Zihi javlongahing aflok uza maydoni “av adno”,

Buroqingg‘a to‘quz *gunbaz* bu to‘qquz *gunbazi xazro*. (BB, 13<sup>a</sup>)

Yugurmaklikda har *gunbad*, ki sekrer ul mahi gulxad,

Guli mehr oldorar behad, uyolur *gunbaza axzar*. (65<sup>a</sup>)

“Osmon” tushunchali so‘zlarga sifat tarzida qo‘llangan *mino* va *minu* (“gunbazi minu bila o‘ynar” kabi) so‘zlarini aslida boshqa-boshqa leksemalardir. *Mino* مينو “emal, sir, mozaika” kabi ma’nolarni bildirsa, *minu* “jannat; osmon” ma’nolarini anglatadi<sup>18</sup>:

Charxi *minoyi* xati sharhig‘a hamroz istama,

Kim bu xat mazmunidin dam urmay o‘tmish ahli roz. (BB, 71<sup>a</sup>)

Biz bu o‘rinda Alisher Navoiy asarlaridagi “osmon” tushunchasi ifodalari xususida qisqacha so‘z yuritdik. Navoiy asarlarida bu tushunchaning ifodalari bilan birga ma’no ko‘لامи ancha keng bo‘lib, uning falsafiy talqini alohida tadqiqotni talab qiladi.

Xuddi shu kabi eski o‘zbek tilida shaxs tushunchasini ifodalovchi so‘zlar misolida ham “Lahjatu-l-lug‘ot”ning mumtoz matnlari tadqiqidagi o‘rni namoyon bo‘ladi. Biror tilda shaxs tushunchasini ifodalovchi so‘zlar miqdori, albatta, boshqa mavzu doirasiga mansub barcha so‘zlar singari o‘sha xalq tafakkur ko‘lamni, etnolingvistik munosabatlari kabi omillar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu ma’noda o‘zbek tilining tarixiy va bugungi lug‘at tarkibida ushbu mavzu doirasidagi so‘zlar miqdori salmoqli bo‘lib, ularni o‘z navbatida bir necha kichik guruhlarga ajratish mumkin.

<sup>16</sup> شمس الدین محمد بن خلف تبریزی . برہان قاطع، با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. جلد ۳ ص ۱۸۳۶

<sup>17</sup> Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – М.: Русский язык, 1985. – С.939.

<sup>18</sup> Персидско-русский словарь. Том 2. – Москва: Русский язык, 1983. – С.591.